

PENSIYA SAVODXONLIGINI BOLALAR VA YOSHLAR ORASIDA SHAKLLANTIRISH VA BILIM KO'NIKMA HOSIL QILISH (YAPONIYA METODI ASOSIDA)

Jo'rayeva Zarina Kuntug'diyevna

O'zbekiston Respublikasi Bank-Moliya akademiyasi Moliya yo'nalishi 1-kurs magistratura
tinglovchisi.

AT Xalq banki Romitan Standart BXM mijozlar bilan ishlash resepsion xodimi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14909776>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Yaponiya metodi asosida Pensiya savodxonligini bolalar va yoshlar orasida shakllantirish va bilim ko'nikma hosil qilish masalalari keng yoritib berilgan.

Maqola davomida pensiya tizimi, uning ishlash prinsiplariga oid bilimlarni yoshlar orasida shakllantirish uchun amaliy, interaktiv, va gamifikatsiya asosidagi ta'lim metodlari qo'llaniladi. Tadqiqot natijalari yoshlarni pensiya tizimi haqida o'rgatishning ijtimoiy ta'sirini va kelajakda moliyaviy ta'minotni oshirishga qaratilgan samaradorligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Pensiya savodxonligi, yoshlar ta'limi, Yaponiya metodi, gamifikatsiya, interaktiv o'qitish, moliyaviy savodxonlik, pensiya tizimi, ijtimoiy ta'minot, ta'lim metodologiyasi, bolalar va yoshlar ta'limi.

FORMATION OF PENSION LITERACY AMONG CHILDREN AND YOUTH AND FORMATION OF KNOWLEDGE AND SKILLS (BASED ON THE JAPANESE METHOD)

Abstract. This article broadly covers the issues of formation of pension literacy among children and youth and formation of knowledge and skills based on the Japanese method.

Throughout the article, practical, interactive, and gamification-based educational methods are used to form knowledge about the pension system and its principles of operation among young people. The results of the study show the social impact of teaching young people about the pension system and its effectiveness in increasing financial security in the future.

Keywords: Pension literacy, youth education, Japanese method, gamification, interactive teaching, financial literacy, pension system, social security, educational methodology, education of children and youth.

РАЗВИТИЕ ПЕНСИОННОЙ ГРАМОТНОСТИ СРЕДИ ДЕТЕЙ И МОЛОДЕЖИ И ФОРМИРОВАНИЕ ЗНАНИЙ И НАВЫКОВ (ПО ЯПОНСКОЙ МЕТОДИКЕ)

Аннотация. В статье подробно рассматриваются вопросы формирования пенсионной грамотности и приобретения знаний и навыков у детей и молодежи на основе японской методики. В статье используются практические, интерактивные и

игровые методы обучения для формирования знаний у молодежи о пенсионной системе и принципах ее функционирования. Результаты исследования демонстрируют социальное воздействие и эффективность просвещения молодежи о пенсионной системе для повышения их финансовой безопасности в будущем.

Ключевые слова: Пенсионная грамотность, образование молодежи, японский метод, геймификация, интерактивное обучение, финансовая грамотность, пенсионная система, социальное обеспечение, образовательная методика, образование детей и молодежи.

KIRISH

Hukumatimiz tomonidan O'zbekiston Respublikasini 2017-2021-yillarda yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi asosida mamlakatimizda inson omilining hal qiluvchi kuch sifatida amal qilishi va izchil ravishda rivojlanib borishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratadigan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, ahamiyatga molik ulkan o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, «..Eng muhim vazifamiz - mamlakatimizda tinchlik va farovonlikni mustahkamlash, odamlarni, xalqimizni hayotdan rozi qilishdan iborat»¹.

O'zbekiston Respublikasida kuchli ijtimoiy siyosat olib borish, ijtimoiy-madaniy sohalarni yanada rivojlantirish, pensiyalar yordamida mamlakatimiz aholisi daromadlarini ko'paytirish, aholi turmush darajasini ko'tarish va aholini manzilli ijtimoiy himoyalash masalalari har doim Hukumatimiz e'tibori markazida bo'ldi. «Amaliy natijadorlik, inson manfaati va yana bir bor inson manfaati islohotlarning bosh maqsadi etib belgilandi. ...Chunki xalqimiz ertaga emas, uzoq kelajakda emas, aynan bugun o'z hayotida ijobiy o'zgarishlarni ko'rishni istaydi»².

Barchamizga ma'lumki, pensiya ta'minoti milliy g'oyani aks ettiradi hamda milliy iqtisodiy siyosat markazida turadi. Oxirgi o'n yillikda ko'p mamlakatlar o'zlarining amaldagi pensiya tizimlarini ijtimoiy-iqtisodiy va demografik sharoitlarining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan isloh qilish zarurati bilan to'qnash keldilar. Bugungi kunda xorijiy mamlakatlarda avlodlar birdamligi va jamg'arish tizimlariga asoslangan pensiya tizimlari amal qilmoqda.

Pensiya savodxonligi — bu shaxsning pensiya tizimi, uning ahamiyati, shakllanishi va unga oid huquqlarni tushunish hamda bu haqda to'g'ri qarorlar qabul qilish qobiliyatidir. XXI

¹ Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlan

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2017-yil. 22-dekabr. uza.uz/.../zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkatmirziyev.

asrda iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarning tezkor o'zgarishi pensiya tizimiga nisbatan talablarni kuchaytirib, bu boradagi savodxonlikni oshirish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Bolalar va yoshlar orasida pensiya savodxonligini shakllantirish, ularning kelajakda iqtisodiy mustahkamligini ta'minlash va pensiya tizimiga oid bilishlarini oshirish muhim ahamiyatga ega.

Bu maqolada Yaponiya metodini asos qilib olgan holda, yoshlarni pensiya savodxonligiga o'rgatish usullari tahlil qilinadi va metodologik yondashuvlar ko'rib chiqiladi.

METOD VA METODOLOGIYA

Yaponiyaning pensiya savodxonligi borasida amalga oshirgan tajribasi, yoshlarni pensiya tizimi haqida bilimga ega bo'lishlari uchun ta'lim jarayonini tizimli ravishda tashkil etish bo'yicha samarali metodlarni ishlab chiqqan. Yaponiyada bu boradagi ta'lim yoshlarni psixologik, iqtisodiy va huquqiy jihatdan tayyorlashni maqsad qilib qo'ygan.

Boshqa davlatlardagi tajribalarga qaraganda, Yaponiyada yoshlar uchun pensiya tizimining ahamiyati, pensiya jamg'armalariga sarmoya kiritish, davlatning pensiya siyosati, ijtimoiy ta'minot va ularning kelajakdagi pensiya tarmog'iga ta'siri haqida keng qamrovli tushunchalar yaratilgan. Bu metodni o'zlashtirishda asosiy e'tibor quyidagi usullarga qaratiladi:

1. Inson psixologiyasini hisobga olish: Yoshlar va bolalarga pensiya tizimi haqida tushunchalar berish, ular uchun qiziqarli va yengil tushunarli bo'lishi kerak.
2. Gamifikatsiya usulini qo'llash: O'yinlar orqali pensiya savodxonligi darslarini o'tish yoshlarni jalb etadi va ularning faol ishtirokini ta'minlaydi.
3. Amaliy mashg'ulotlar: Yoshlar uchun pensiya tizimi haqidagi ma'lumotlarni real hayotga moslash va amalda qo'llash uchun interaktiv mashg'ulotlar tashkil etish.
4. Erta yoshdan boshlash: Pensiya savodxonligini yosh bola yoki o'smirlik davridan boshlab o'rgatish, ularning kelajakdagi moliyaviy ta'minotiga yordam beradi.

Bugungi kunda keng jamoatchilik muhokamasi natijasida ishlab chiqilgan hamda Prezident qarori bilan tasdiqlangan 2017-2021- yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi va uning alohida ustuvor yo'nalishlari ham inson hayoti va uning manfaatlarini himoyalash bilan bogliq yo'nalish va tarmoqlarni o'zida mujassam etgan ijtimoiy soha rivojini ta'minlash, uni yangi bosqichga ko'tarish, bu sohadagi muammolarni yechish, ijtimoiy ta'minot va pensiya sohasi rivojining qonuniyhuquqiy asoslarini mustahkamlashga qaratilganligi bilan ayniqsa ahamiyatlidir. Pensiya tizimining institutsional mohiyatidan kelib chiqqan holda, bosh masala - fuqarolarning jam g'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimini rivojlantirish, pensionerlar moddiy ta'minotining barqaror mexanizmini nazorat qilish vazifasi to'liq hal etilishi alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Ijtimoiy himoyalash shakllari haqida gap borganda, pensiya ta'minoti davlat ijtimoiy siyosatida muhim o'rin tutganligi hammaga ma'lum.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va yangilash sharoitida pensiya ta'minotining ijtimoiy funksiyasi yanada takomillashtiriladi, amaldagi pensiya miqdori fuqarolarning yashash sharoitlarini ta'minlashga ko'maklashadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Pensiya savodxonligi bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar va maqolalar mavjud. Xususan, Yaponiya tajribasi haqida bir necha ishlar, masalan, Matsuda (2018) tomonidan yozilgan "Yaponiyada pensiya savodxonligini oshirishda metodologik yondashuv" va Kato (2020) ning "Bolalar va yoshlar orasida pensiya ta'limi" asarlarida, yoshlarni pensiya tizimi haqida ta'lim berishning samarali usullari tahlil qilingan. Ushbu manbalar, pensiya ta'limining ijtimoiy tizimga ta'sirini, yoshlar psixologiyasini hisobga olgan holda, o'qitishning optimal metodlarini ishlab chiqishga yordam beradi. Bundan tashqari, xalqaro tajribalarda pensiya savodxonligini oshirishga qaratilgan o'qitishning asosiy maqsadi, fuqarolarni pensiya tizimi, uning ishlash prinsiplari va kelajakdagi moliyaviy ta'minotni o'z vaqtida tushunishga yo'naltirilgan.

TADQIQOT NATIJASI

Yaponiya metodining yoshlar orasida pensiya savodxonligini shakllantirishga bo'lgan ta'siri quyidagicha tahlil qilindi:

1. Amaliy kurslar va seminarlar: Yoshlar uchun pensiya tizimi haqidagi kurslar va seminarlar samarali bo'lib, ular pensiya tizimi haqida kengroq tushuncha hosil qilishdi.
2. Gamifikatsiya orqali o'qitish: O'yin va simulyatsiyalar yordamida yoshlar pensiya jamg'armalariga oid qarorlar qabul qilishni o'rganishdi. Ushbu usul ularning faol ishtirokini ta'minladi va qiziqarli o'qitish metodini yaratdi.
3. Ijtimoiy ta'minot tarmog'ining tushunilishi: Yoshlarning ijtimoiy ta'minot, pensiya jamg'armalari va ularning kelajakdagi pensiyaga ta'siri haqida bilimi sezilarli darajada oshdi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, pensiya savodxonligini shakllantirishda yoshlar bilan interaktiv metodlar, gamifikatsiya va real hayotga moslashtirilgan mashg'ulotlar samarali bo'lishi mumkin. Yaponiyaning metodologiyasi yoshlar orasida nafaqat pensiya tizimi, balki moliyaviy savodxonlikni ham oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, erkin va ochiq suhbatlar tashkil etish, yoshlar bilan pensiya tizimi haqida so'rovlar o'tkazish, ularning fikrlarini tinglash va o'rgatishning muhim jihatlari sifatida ko'rilishi kerak.

Biroq, ushbu metodlarni boshqa davlatlarda joriy etishda madaniy va iqtisodiy sharoitlarni hisobga olish zarur. Yoshlar orasida faqatgina amaliy ko'nikmalarni shakllantirish bilan cheklanib qolmasdan, ular uchun bu tizimning ijtimoiy ahamiyatini ham yoritish muhimdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-martdagi «Pensiyalar va nafaqalar to'lash mexanizmini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2826-sonli qarori

asosida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Markaziy banki, Pensiya jamg'armasi pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiyalar va boshqa to'lovlarni naqd shaklda to'lashni «O'zbekiston pochta» AJdan O'zbekiston Respublikasi Aksiyadorlik-tijorat Xalq banki bo'limlariga mart-iyul oylari mobaynida bosqichma-bosqich o'tkazildi. O'zbekiston Respublikasining barcha hududlarida 2017-yil 1-iyuldan pensiyalar va nafaqalami to'lash faqat Xalq banki tomonidan amalga oshiriladi. Mustaqil harakatlanish hamda pensiyalar va nafaqalami maxsus kassalardan olish imkoniyatiga ega boim agan shaxslarga pensiyalar va nafaqalar Xalq banki tomonidan bevosita ular yashaydigan joyga yetkazib beriladi. O'zbekistonda jam g'arib boriladigan pensiya tizimining joriy qilinishi aholining turmush darajasini oshirishda ijobiy burilish yasaydi. Fuqarolarning shaxsiy jam g'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablaglardan mamlakatning moliyaviy resurslari sifatida samarali boshqarish va mazkur sohada moliyaviy nazoratni ta'minlash davlat pensiya ta'minotini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Yaponiya metodologiyasi asosida bolalar va yoshlar orasida pensiya savodxonligini shakllantirish uchun keng qamrovli, amaliy va interaktiv o'qitish usullaridan foydalanish zarur.

Yoshlarni pensiya tizimi haqida o'rgatish, kelajakda moliyaviy mustahkamlikni ta'minlash va ijtimoiy ta'minot tizimi bilan tanishtirish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, bu metodni joriy etish, mamlakatning iqtisodiy va madaniy sharoitlariga moslashtirilgan holda amalga oshirilishi kerak. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, yoshlarni pensiya savodxonligiga o'rgatish — ularning kelajakdagi ijtimoiy ta'minoti va barqaror rivojlanishi uchun muhim qadamdir.

REFERENCES

1. Disney R. Public pension reform in Europe: policies, prospects and evaluation // The World Economy. 2003. Vol 26. № 10. P .1425-1445.
2. Djo'raev A. 2016-yil yanvar oyi uchun jismoniy shaxslarning daromadidan olinadigan soliq va majburiy to'lovlar va badallar hisob-kitobi. W Soliq solish va buxgalteriya hisobi. 2016. №1. -B.1 11- 16.
3. Kasimova G.A. Ijtimoiy siyosatning asosiy yo'nalishlari. Monografiya. «Iqtisod-moliya». T., 2008. -113 b. 75. Kasimova G.A., Botirov A.A. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti. Monografiya. T.: Tamaddun. 2015. -108 b.
4. Voxabov A. Bozor munosabatlariga o'tish bosqichida ko'p ukladli iqtisodiyot va uning takroran hosil bo'lishi. Monografiya. -T.: Moliya. 2002. -293b.

5. Vahabov A.V., Muxamedova S.A. O'zbekistonda pensiya tizimini rivojlantirish muammolari va istiqbollari. Iqtisodiyot nazariyasi muammolari: talqini va yechimlari. Oliy o'quv yurtlararo ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. Toshkent. 2015-yil. 24 aprel. -B.506-509.